

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP VOSITALARI HAMDA ULARNING TARMOQLARIGA OID MASALALAR.

Fayzulloyev Avazbek Narzullo o'g'li.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari fakulteti talabasi.

Phone +(998)94 366 25 06

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda butun dunyoga muammoga aylanib borayotgan giyohvandlik va psixotrop vositalari yer yuzida xavfsizlikka, inson salomatligiga xavf solmoqda. Shuningdek har bir jamiyatning iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalariga katta xavf solishga ulgurgan giyohvandlik va psixotrop vasitalarining noqonuniy savdo aylanmasi va bu aylanmaga bilib-bilmay kirib qolgan kishilarning bu yo'lga kirishiga nima majbur qilganligi hamda bunday asoslarni oldini olish to'g'risida muhokamalar olib boriladi.

Kalit so'zlar. Giyohvandlik va psixotrop vositalari, heroin, kokain, bojxona, kontrabanda, noqonuniy savdo, o'lat, vabo, narkotik moddalar, alkohol, tamaki vositalari, noqonuniy kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с наркоманией и психотропными веществами, которые в современном мире стали глобальной проблемой. Обсуждаются их влияние на безопасность, здоровье человека, а также на экономическую, политическую и культурную сферы каждого общества. Кроме того, анализируется незаконный оборот наркотиков и психотропных веществ, представляющий серьезную угрозу, и причины, по которым люди, осознанно или неосознанно, вовлекаются в эту деятельность. Также приводятся меры по предотвращению подобных явлений.

Ключевые слова. Наркомания и психотропные вещества, героин, кокаин, таможня, контрабанда, незаконная торговля, мор, эпидемия, наркотические вещества, алкоголь, табачные изделия, незаконное производство химических продуктов.

Annotation. The article discusses issues related to drug addiction and psychotropic substances, which have become a global problem in today's world. It examines their impact on security, human health, and the economic, political, and cultural spheres of society. Additionally, the article analyzes the illegal circulation of drugs and psychotropic substances, which pose a significant threat, and the reasons why people, knowingly or unknowingly, become involved in this trade. Measures to prevent such occurrences are also discussed.

Key words. Drug addiction and psychotropic substances, heroin, cocaine, customs, smuggling, illegal trade, plague, epidemic, narcotic substances, alcohol, tobacco products, illegal chemical production.

Kirish

So'ngi yillarda butun dunyoda, xususan mamlakatimizda ham global muammoga aylanishga ulgurgan va hali hamon o'z yechimi topilmagan, hamda butun dunyo olimlarini bir joyga to'plashga majbur qilgan masalalardan biri bu „Giyohvandlik va psixotrop“ vositalaridir. Ma'lum qilishimiz joyizki o'rta asrlarda dunyo aholisiga xavf solgan „Vabo“ va „O'lat“ kabi kasalliklarning o'rnini XXI asrda „Giyohvandlik va psixotrop“ vositalari egallab oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada yurtimizda ham keng ko'lamli tekshiruv ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan bu masalaga jiddiy yondashgan holda davlatimiz rahbari tomonidan DXX, IIV, hamda Milliy Gvardiya kabi soha vakillari bu ishga jalb qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“ 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori qabul qilindi. Bunday islohotlardan so'ng yurtimizda bu kabi muammolar sezilarli darajada kamaytirildi. Malumotlariga qaraganda Osiyoda Ozbekiston davlati giyohvandlik moddalarini eng kam istemol qiluvchi davlatlar qatorida turishini faxr bilan ayta olamiz^[1]

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda yurtimizdagi eng yirik muammolardan biri bu giyohvandlikdir nafaqat yurtimizda balki butun dunyo mamlakatlarining global muammosidir. Bizning yurtimiz garchand O'rta Osiyodagi eng tinch o'lkalardan biri bo'lishiga qaramasdan boshqa davlatlardan turli xil noqonuniy yo'llar bilan giyohvandlik vositalarini kiritilmaydi deb ayta olmaymiz. Bunday yomon illatlarga kirib qolganlar soni tobora oshayotganligi albatta achinarli holat. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining malumot berishicha: bu kabi vositalar inson tanasini tobora holsizlantirib uning ichki azolarini ishdan chiqarishi mumkinligi va hattoki o'limgacha olib kelinishi isbotlangan^[2]. Buning natijasida nogironlik, turli xil surunkali kasalliklar va farzandning o'lik tug'ilishi sabablari bundan mustasno emas.

- Bugungi kun meditsinasida ma'lum bir miqdorda bunday mahsulotlardan mutaxassislar nazorati ostida foyadalaniladi turli xil dori preporadlarini tayyorlash uchun va bunday vositalar bizda mavjud bo'lmaganligi sababi boshqa davlatlardan eksport qilib qonuniy yo'l bilan olib kelinadi^[3]. Biroq ba'zi bir shaxslar esa o'z ehtiyojini qondirish va moliyaviy foyda ko'rish maqsadida bunday vositalarni olib kelib mahalliy aholiga dastlab arzonga sababi (bunday og'ular o'ziga orgatib qo'yish xususiyatiga ega bo'lib buni qabul qilgan inson muntazam istemol qilmasa o'lim

darajasigacha borishi mumkin) keyinchalik esa qimmat narxlarda va oxir oqibat istemolchi bu shaxslarga tobe inson bo'lib qolishadi va bu esa ularga ayni muddaodir.

- Bundan tashqari ba'zi bir insonlar esa bunday mahsulotlarni o'z uyida yetishtirib keyinchalik sotish bilan ham shug'ullanuvchilar afsuski mavjud.

- Ba'zi birlari esa bojxona xizmatchilaridan yashirincha yo'llar (boshqa bir mahsulotning ichiga yashirish) yo'li bilan boshqa davlatlardan bizning yurtimizga olib kirgan holatlar ham kuzatilgan^[4].

Yurtimizdagi ma'lumotlarga qaraganda so'ngi 5 yil ichida Respublikamiz hududida giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi vositalar noqonuniy muammasi uchunjavobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga shu jumladan talabalar 21 foiz, maktab o'quvchilari 6 foizga oshgan. Statistikalarga qaraganda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan giyohvandlik vositalari istemolchilari 60 foizga ko'paygan^[5].

Bu statistikadagi yoshlarning ko'pchiligida tergovlar olib borish natijasida moddiy yetishmovchilik va tezda boylik to'plash kabi sabablar orqali kirib qolganligi aniqlandi. Ularning orasida aldov qurboni bo'lganlar ham mavjud ya'ni bugungi kunda ommalashgan yetkazib berish xizmati ishchilarining buyurtmalar orasiga yashirincha yo'llar bilan solingan narkotik moddalarni organ hodimlari tomonidan tintuv ishlari natijasida topilgan holatlar ham kuzatilmoqda. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun yoshlarimiz bunday malumotlardan ogoh bo'lish va boshqalarning noroziligi bilan ishlab topilgan mablag' hech qachon unga foyda keltirmasligini tushuntirish va ularga ko'nikmalar berish uchun maktab, universitetlarda shu kabi ishlarni olib boruvchi alohida mutaxassislar bilan ishlovchi maxsus bo'lim faoliyat yuritisa foydaliroq bo'ladi deb o'ylayman.

BMT xulosa va tafsialari asosida ishlab chiqilgan Ozbekiston Respublikasida giyohvandlik va shunga o'xshash jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi^[6]. Bundan tashqari tegishli xodimlar tomonidan ko'plab hududlarda xususan maktab, universitet hamda jamoat joylarida turli xil tadbirlar olib borilmoqda. Shuningdek televideniya hamda axborot telekommunikatsiyalarda bunday illatlardan ogoh bo'lish va ularni oldini olish to'g'risida ko'nikmalar berilmoqda. Yuqoridagi statistikalariga qaraganda aksariy holatlarda maktab o'quvchilari ham borligi achinarli holat, shuning oldini olish maqsadida davlatimiz rahbari 2024-yil 1-fevraldan boshlab yurtimizdagi barcha maktablarga Milliy gvardiya hodimlarini mas'ul qilib qo'yganligi bunday illatlarning kamayishi hamda bilimga qaratilgan yirik islohotlardan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Giyohvandlikning tarmoqlari - Giyohvandlikning ham turli xil tarmoqlari mavjud bo'lib: bunga biz alkagol ichimliklari va turli xil tamaki vositalarini aytishimiz mumkin. Ammo ularga bo'lgan talab esa tobora ortib bormoqda va afsuski bunday mahsulotlar (alkagol ichimliklari va tamaki mahsulotlari) bizning yurtimizda ham ishlab chiqariladi. Bunday mahsulatlarni istemol qilgan kishilarda ham giyohvandlik asoratlari ko'rishingiz mumkin (alkagol va tamaki vositalariga o'rganib qolish). Bu turdagi mahsulotlarning talabi hattoki maktab o'quvchilari, ayollar va o'spirinlar orasida ham avj olmoqda.

Tamaki va alkogol ichimliklarining muammosini hal qilishning yagona yo'li bu- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning dozasini (alkagol va kokain miqdorini) tobora asta-sekinlik bilan kamaytirishdir. Sababi ularning miqdori keskin kamaytirilsa bemor organizmi bunga qoniqmaslik holati kelib chiqishi mumkin shuning uchun ham yurtimizda bunday siyosat yuritilsa giyohvandlikning asosiy tarmoqlaridan biriga chek qo'ygan bo'lamiz.

Xulosa va takliflar. Giyohvandlik- bu faqatgina shaxsiy muammo emas, balki butun jamiyatni xavf ostiga qo'yadigan, jiddiy e'tibor talab qiladigan masala. Bu muammo bilan kurashish uchun faqat davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari kerak. Giyohvandlikka qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatlar jamiyatning sog'lom va xavfsiz bo'lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir. Shu sababdan ham biz bu qora illatni yo'q qilishimiz uchun faqatgina davlat hodimlarigina emas balki har birimiz mas'ulmiz va har birimiz javobgarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Population review 19.02.2024-yil statistik malumotlar
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73- farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi „Giyohvandlik psixiateriyas“.
4. Demokrat.uz axborot sayitining „Jamiyat va Jinoyat“ 02.11.2024 soni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori.